



**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN
DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS**

HELSINKI

universalconference.us

INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS

Volume 03, Issue 04, 2026 (30-APRIL)

Editor in Chief

Dr. Rajeev Ojha - Interdisciplinary Research in Basic Sciences, Jamia Millia Islamia, New Delhi -110025, India

Editorial Team

Sunita Sarawagi - Indian Institute of Technology Bombay, Mumbai, India.

Dr Manjunatha LH - Professor, REVA University, INDIA

Asish Bera - Edge Hill University, UK, BITS Pilani, India

Dr Sunildro LS Akoijam - Assistant Professor of Management, North Eastern Hill University, India

Madan Mohan Singh - Professor of Mathematics, North-Eastern Hill University, Shillong, India

Dr. Anupam Singh - Associate Professor-CSE, Graphic Era Hill University Dehradun, India

Dr. Sargam Bahl Walia - School of Management, Graphic Era Hill University, Dehradun, Uttarakhand, India

Narayan Pradhan - Indian Association for the Cultivation of Science

Ashok Kumar - Kumar Associate Professor E&CE National Institute of Technology. Hamirpur, India.

Anjali Pal - Department of Civil Engineering, Indian Institute of Technology Kharagpur - 721302, India.

Rajnish Joshi - Professor of Medicine, All India Institute of Medical Sciences, Bhopal, India

Mukul Kumar - IIT Mumbai (India); Meijo University (Japan); HEG Ltd. (India)

Prof. Kuruvilla Joseph - Indian Institute of Space Science and Technology (IIST)

Prof. Yogesh C. Sharma - D.Sc., FRSC, FBRs, FIAPS, FISEES, Department of Chemistry, Indian Institute of Technology

Professor Indra Mani Mishra - Indian Institute of Technology (Indian School of Mines), Dhanbad; Formerly at India

JADID NASRIDA ONA OBRAZINING YETAKCHI XUSUSIYATLARI VA MUALLIF TASVIR MAHORATI

Termiz davlat universiteti

Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti

yo‘nalishi 2-kurs magistranti

Tursunpo‘latova Guljahon Abdusolat qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid yozuvchilarining katta va kichik nasriy asarlaridagi ona obrazlari tahlil qilinadi va ushbu obrazlarning asardagi badiiy talqinlari ifodalanadi. Jadid yozuvchilarning ona obrazini yaratishdagi badiiy tasvir mahorati ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются образы матерей в крупных и малых прозаических произведениях писателей-джадидов и представлены художественные интерпретации этих образов в произведениях. Раскрывается художественное мастерство писателей-джадидов в создании образа матерей.

Abstract: This article analyzes the images of mothers in the major and minor prose works of Jadid writers and presents the artistic interpretations of these images in the works. The artistic skill of Jadid writers in creating the image of mothers is revealed.

Kalit so‘zlar: Jadid adabiyoti, epik tur, badiiy ifoda, estetik ideal, realizm, obraz, xarakter, badiiy timsol.

XX asr boshlari o‘zbek adabiyotshunosligida o‘ziga xos muhim davr bo‘ldi. Bu davrda jadid namoyondalari o‘zlarining badiiy jihatdan yuksak qiymatga ega bo‘lgan asarlari bilan adabiyot tarixida muhim iz qoldirdi. Epik va dramatik turlar uchun yangilanish va rivojlanish bosqichi bo‘ldi. Asarlarda ona obraziga alohida e‘tibor berilib, bu obrazlar muayyan badiiy ifoda vositalari yordamida tasvirlandi. Ona obrazi bir nechta yetakchi badiiy timsollar yordamida nasriy va dramatik asarlarda namoyon bo‘ldi. Jadid namoyondalari o‘sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhitni inobatga olgan holda, asarlarda ona obrazlariga muhim ma‘naviy-ma‘rifiy g‘oyalarni singdirdi. Bu davr adabiyotida Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Hamza kabi jadid yozuvchilarining asarlarida ona obrazlariga alohida urg‘u berilgan. Ayniqsa, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Yangi saodat” va “Uchrashuv” romanlarida ona obrazi yozuvchining estetik-ideali ko‘rinishida namoyon bo‘lgan. Garchi bu asarlar roman janrining talablariga to‘liq javob bera olmasa-da, romanning ilk ko‘rinishlari sifatida qayd qilinadi. Adabiyotshunos, tanqidchi Ulug‘bek Hamdam bu romanlar haqida shunday fikrlarni keltiradi: “Davr kayfiyatini aks ettirar ekan, Hamza zamon ehtiyojidan kelib chiqib

nasrga ham murojaat qildi. Nasriy turda uning ikki asari saqlanib qolgan. “Yangi saodat” va “Uchrashuv”. Ularni Hamza “milliy roman”lar deb ataydi. Albatta, bu asarlar roman janrining talablariga to‘la javob bera olmas edi. Lekin aytish joizki, romanning barcha talablariga to‘la javob bera oladigan “O‘tkan kunlar”ning (Abdulla Qodiriy) yaratilishi uchun o‘zbek adabiyoti mana shunday tajribalarni boshidan kechirishi kerak edi. Hamza “roman”lari Mirmuhsinning “Befarzand Ochildiboy” asari bilan birga ana shunday “eksperiment” vazifasini o‘tadi va endilikda biz bu asarlarni sira ikkilanmasdan o‘zbek romanchiligi maktabining dastlabki urinishlari, deya olamiz”¹

“Yangi saodat” romanidagi *Maryam* – ona obrazi sifatida ma’rifatparvar, ta’lim va tarbiyaga e’tibor qaratadigan, bolalarining kelajagi uchun qayg‘uradigan oqila ayol. U moliyaviy jihatdan qiynalsa-da, bolalarining ta’lim olishi va kamol topishi uchun harakatdan to‘xtamaydi va oxirida o‘zi kutgan baxt, ya’ni farzandlarining saodatiga erishadi. Yozuvchi Hamza ham millat onalarini xuddi shunday bo‘lishini xohlaydi. Filologiya fanlari doktori Nodira Xolikova Maryam obraziga shunday ta’rif beradi: “Yangi saodat”dagi Maryam obrazi barcha jadid ziyolilarining orzu-istagidagi o‘qimishli millat onasi edi”.²

“Uchrashuv” romanida esa *Salima* obrazi muallif mahorati bilan juda chiroyli tasvirlangan. Salima Abdurahmonning ayoli hamda Yusuf va Halima singari tarbiyali farzandlarning onasi. Salima asarda vafot etgan bo‘lsa-da, turmush o‘rtog‘i tomonidan yorqin xotiralar bilan tilga olinadi. Salima asarda eriga itoatli, juda kamtar, or-nomusli va vafodor ayol sifatida tasvirlangan. U bolalariga mehribon va g‘amxo‘r ona ham edi. “Xotun dunyosinda-da shulay iffat, nomus, g‘ayrat, shijoat, arslon masalli ayollar bo‘lgan. Mana, Salima-da shular jumlasidan bo‘lub, oz fursatda Abdurahmonning bu kungi davlatg‘a yetushdirgan edi”.³ Hamza o‘z asarlarida ayollarning, millat onalarining ilmi, ma’rifatli bo‘lishini targ‘ib qiladi hamda yosh avlod kamolga yetishi uchun tarbiyali va ma’naviyatli ona muhim ahamiyat kasb etishini obrazlar vositasida ko‘rsatib beradi. “Yusufning onasi Salima mehribon ona va itoatgo‘y rafiqa timsoli. Otasi Abdurahmon ikkinchi turmush o‘rtog‘i Soraga aytgan so‘zlaridan shu narsa anglashiladiki, Yusufning xushtabiat, muloyim, xushxo‘yligi hamda qizi Halimaning go‘zal xulqli va har qanday ishni o‘gay onasidan ko‘ra yaxshi eplashi onasi Salima

¹ Улуғбек Ҳамдам. Ўзбек ва жаҳон адабиётига чизгилар. Тошкент, 2026. – 43-44-б.

² Xolikova Nodira Djohongirovna. “O‘zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining poetik takomili” Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan D I S S E R T A T S I Y A. – 180-b.

³ Hamza Hakimzoda Niyoziy, “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”. Toshkent. “Yoshlar matbuoti”, 2024.

tufayli edi. Yozuvchi bu o‘rinda farzandlar tarbiyasida onaning nechog‘li muhim o‘rin tutishiga ham urg‘u beradi”.⁴

Cho‘lpon hikoyalarida asosiy mavzu bu jaholatdir. Aynan mana shu mavzu orqali Cho‘lpon har bir personajning o‘ziga xos sifatlarini ochib beradi. Cho‘lpon hikoyalarida ona obrazlari ichki iztiroblarga to‘la, erksiz, jaholatdan va yo‘qsillikdan aziyat chekkan jabrdiyda va mushtipar ayol sifatida gavdalanadi. Jumladam, “Qor qo‘ynida lola” hikoyasidagi *Qumribush*, “Seni ko‘b ko‘rmasun” hikoyasidagi *Xadicha*, “Oydin kechalarda” hikoyasidagi *Zaynab kampirlar* davrning ijtimoiy muhitidan va jaholatdan aziyat chekkan jabrdiyda onalardir.

Bundan tashqari, “Kecha va kunduz” romanidagi *Qurvonbibi* obrazi ham yuqoridagi sifatlarga aynan mos keladigan obraz. Qurvonbibi ushbu asarda murakkab va fojiali ayol obrazlaridan biri sanaladi. “Qurvonbibi jinni bo‘lib paranjisiz va yirtiq kiyimlar bilan eshonnikiga kelgan vaqtida uni zanjirga bog‘laydigan odam ham topilmadi. Eshonning katta xotini rahmi kelganidan muridlarga buyurdi; ular jinni xotinni tutib, ichkaridagi katta tolga bog‘ladilar”.⁵ U davr realizmining haqiqiy ko‘rinishi hamda o‘sha davr millat onalarining umumlashma obrazidir. Cho‘lpon bu obraz orqali eski ijtimoiy tuzumdagi ayollar taqdiri, erksiz va jaholat qurboni bo‘lgan onalarning ichki iztiroblari, ruhiy isyonlari va sabr chegaralarini chuqur tasvirlab beradi. Filologiya fanlari doktori N.Xolikova Qurvonbibi obrazi haqida shunday fikr bildiradi: “Qurvonbibi juda sakina, sobira, xushfe‘l, chin mo‘mina ayol edi. Uning birgina aybi shuki, u barcha o‘zbek ayollari singari eriga mute, eri qanchalar johil, fosiq va zolim bo‘lmasin, unga qarshi chiqishga haqqi yo‘q. O‘sha zamonning barcha ayollari singari uning tarbiyasiga mutelik, qaramlik singib ketgan”.⁶

Abdulla Qodiriy romanlarida ona obrazlariga alohida urg‘u berilgan. “O‘tkan kunlar” romanida O‘zbek oyim va Oftob oyim obrazlari ko‘plab muhokamalarga sabab bo‘lgan obrazlardir. Bu obrazlar davr muhitini yorqin ifoda etgan real hayotdagi onalarning sifatlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Lekin ko‘p o‘rinlarda bu ikki obraz qarama-qarshi xarakterga ham ega. O‘zbek oyimda qat‘iyatlilik mavjud bo‘lsa, Oftob oyimda ta’sirchanlik ko‘zga tashlanadi. Ammo bu ikki ona ham o‘z farzandining kelajagi uchun hamma narsaga tayyor.

Oftob oyim asarda mahorat bilan tasvirlangan. . “Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi – ichidan atlas ko‘ynak, ustidan odmi xon atlas guppi kiygan, boshig‘a oq dakanani xom tashlag‘an, o‘ttuz besh yoshlar chamaliq go‘zal, xush bichim bir

⁴ Xolikova Nodira Djohongirovna. “O‘zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining poetik takomili” Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan D I S S E R T A T S I Y A. – 131 - b.

⁵ Abdulhamid Cho‘lpon. Kecha va kunduz. Toshkent, 2019. – 285 - b.

⁶ O‘sha manba. – 177 - b.

xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi – Oftob oyim...".⁷

Abdulla Qodiriy asarlarida ona obrazlari milliylikka xos ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qodiriy ayollarni tasvirlar ekan, atlas kiyimlar bilan ifodalaydi. Bundan tashqari, ona obrazlari urf-odat va an'anaviylik tamoyiliga xos bo'lgan xatti-harakatlarni bajaradi. Jumladan, "O'tkan kunlar" romanida Kumushbibi Yusufbek hojining xonadoniga birinchi marotaba kelin bo'lib kelganda xabar qilgan kishiga suyunchi sifatida O'zbek oyimning ko'rmana berish; Otabek Mirzakarim qutidorning xonadoniga kuyov bo'lib kelganida yomon ko'zdan asrasin deb Oftob oyimning isiriq tutashi; qizni kuyovga so'rash uchun sovchi bo'lib borish marosimlari aynan milliylik va an'anaga yo'g'rilgan holda asarda ifodalanadi.

Umuman olganda, jadid asarlarida ona obrazlari, asosan, ikki xil qiyofada namoyon bo'ladi. Birinchisi, ma'rifatparvar, xat-savoddan xabardor, tarbiyali onalarning farzandlari taqdiriga e'tiborli bo'lib, ularni ilm yo'lida kamol topishi uchun harakat qilishi bo'lsa, ikkinchisi, ilmdan bexabar, oilada o'z o'rniga ega bo'lmagan, erksiz onalarning jaholat qurboni bo'lib qolishidir. Bu ikki toifadagi ona obrazlari asarlarda yozuvchilarning badiiy mahorati bilan millat onalarining haqiqiy real hayotdagi ko'rinishini o'zida mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Улуғбек Ҳамдам. Ўзбек ва жаҳон адабиётига чизгилар. Тошкент, 2026.
2. Xolikova Nodira Djohongirovna. "O'zbek jadid adabiyotida xotin-qizlar obrazining poetik takomili" Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan **D I S S E R T A T S I Y A**.
3. Abdulhamid Cho'lpon. Kecha va kunduz. Toshkent, 2019.
4. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. "Navro'z". Toshkent, 2019.
5. Hamza Hakimzoda Niyoziy, "Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari". Toshkent. "Yoshlar matbuoti", 2024.

⁷ Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. "Navro'z". Toshkent, 2019. – 28-b.

**“O‘N SAKKIZGA KIRMAGAN KIM BOR?”: BEG‘UBORLIKDAN MAS‘ULIYAT SARI
ILK QADAM**

Panjiyeva Muxlisa Sayfulla qizi
Termiz davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti
Matematika ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Bu maqolada o‘zbek xalq yozuvchi Shukur Xolmirzayevning hammaning ko‘nglidan joy olgan “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” asari haqida fikr yuritimiz. Maqolada 18 yosh nafaqat sho‘xlik va beg‘ubor orzular davri, balki insonning katta hayotga qadam qo‘yadigan davri ekanligi haqida gap boradi. **Ushbu maqolaning boshqa maqolalardan ustunlik jihati shundaki,** unda asar shunchaki kitobdagi voqea sifatida emas, balki har bir yosh yigit-u qizlarning hayotida uchrashi mumkin bo‘lgan hayotiy sinovlar asosida tahlil qilingan. Maqola orqali yoshlikdagi beg‘uborlik qanday qilib asta-sekin mas‘uliyatga aylanishi kerakligini va bu yo‘lda adashib qolmaslik uchun nimalarga e‘tibor berish lozimligini tushunib olish mumkin.

KALIT SO‘ZLAR: Shukur Xolmirzayev, o‘n sakkiz yosh, yoshlik, bolalik, orzular, hayotiy sinov, mas‘uliyat, xato va saboq, shaxsning ulg‘ayishi, beg‘uborlik, ilk qadam, hayot haqiqati, kelajak yo‘li.

Inson umrining eng go‘zal va mas‘uliyatli onlari— bu beg‘ubor yoshlikdan katta hayotga qadam qo‘yiladigan 18 yosh davridir. Aynan shu yoshda shaxsiy qarashlar shakllanadi va hayotiy sinovlar boshlanadi. Taniqli o‘zbek xalq yozuvchi Shukur Xolmirzayevning “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” asari aynan mana shu o‘tish davrining murakkabliklarini mahorat bilan ochib bergan. Ushbu maqolada asar qahramonlari misolida yoshlikdagi orzularning haqiqiy hayot va mas‘uliyat bilan to‘qnashishi tahlil qilinadi. **Maqsadimiz**— asardagi ma‘naviy saboqlarni kelajak yoshlari hayoti bilan bog‘lash va ulg‘ayish ostonasidagi yigitlar-u qizlar uchun to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi xulosalarni taqdim etishdir. Shukur Xolmirzayev o‘zining bu asari orqali kitobxonni inson umrining eng nozik onlariga sayohat qildiradi. Maqolamizning ushbu qismida biz muallifning qahramonni tanlashdagi mahoratini ko‘rib chiqamiz. O‘n sakkiz yosh — bu shunchaki biologik yosh emas, balki bolalikning beg‘ubor orzulari va katta hayotning qat‘iy mas‘uliyati to‘qnashadigan chegara hududidir.¹

Asar voqealari Asqarning qishloqdan Toshkentga kelishi bilan boshlanadi. Bu safar Asqar uchun shunchaki o‘qishga kirish harakati emas, balki o‘zligini isbotlash, otasining va qishloqdoshlarining nigohidan uzoqda “erkin qush”ga aylanish xohishidir. Shukur Xolmirzayev Asqarning Toshkent ko‘chalaridagi ilk qadamlarini tasvirlar ekan, shahar muhitining qahramon ruhiyatiga ta‘sirini mahorat bilan chizadi. Toshkent - bu ulkan imkoniyatlar va shu bilan birga katta xatarlar maskani. Qishloqning sokin va hamma bir-birini taniydigan muhitidan so‘ng, shaharning shovqin-suroni va begonaligi asar qahramonimizni biroz dovdiratib qo‘yadi, ammo bu dovdirash uzoq davom etmaydi. Undagi yoshlik shijoati va “hamma narsani bilaman” degan ishonchi uni oldinga chorlaydi. U o‘zini juda aqlli, dunyoqarashi keng deb hisoblaydi, ammo hayotiy tajribasining yo‘qligi uni kutilmagan

¹ [Shukur Xolmirzayev – «O‘n sakkizga kirmagan kim bor»](#) (Qissa va hikoyalar) – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2017.

vaziyatlarga solib qo'yadi. ²Yozuvchi qahramonining har bir ichki kechinmalarini shunday ustalik bilan yozadiki, o'quvchi go'yo Asqarning yonida turgandek his qiladi. Asqarning universitet binosi oldidagi hayajoni, boshqa abituriyentlar bilan muloqoti, ularning orasidagi soxta va samimiy munosabatlarni kuzatishi uning ijtimoiy moslashuv jarayonini ko'rsatadi. Shukur Xolmirzayev ushbu bo'limda asarning asosiy qarama-qarshilik- orzu va haqiqiy hayot to'qnashuvini ochib beradi. Asqar o'zini talaba sifatida tasavvur qiladi, kelajakdagi muvaffaqiyatlarini xayolan chizadi, biroq tayyorgarlikdagi sustkashlik va chalg'ishlar uni asosiy maqsadidan uzoqlashtiradi. Muallif bu orqali yoshlarga muhim dars beradi: maqsadga erishish uchun faqat orzu qilish yetarli emas, balki qat'iy intizom va mehnat zarur. Asqarning yotoqxonadagi hayoti, u yerdagi turli xarakterli yigitlar bilan tanishuvi uning dunyoqarashini yanada kengaytiradi. Ba'zilar faqat o'yin-kulgi deb yashasa, boshqalar kitobdan bosh ko'tarmaydi. Bu holat Asqarni ikkilantirib qo'yadi: u qay biri to'g'ri ekanini va o'zi kim bo'lishini tushunishga harakat qiladi. Asqarning o'n sakkiz yoshdagi psixologiyasi juda murakkab. Bir tomondan, u o'zini katta erkakdek tutishni istaydi, mustaqil qarorlar qabul qilishga intiladi. Ikkinchi tomondan, u hali ham bolalarcha hislar asirida, uydagilarning sog'inchi va moddiy yordamiga muhtoj. Mana shu "ikki olam orasidagi sarsonlik" asarning falsafiy o'zagini tashkil qiladi. ³Yozuvchi Asqar orqali nafaqat bitta yigitning, balki o'sha davrdagi barcha o'smirlarning umumiy dardini ko'rsatib bergan. 18 yoshli inson hayotida uchraydigan ilk jiddiy sinovlar — bu uning kelajakdagi irodasini shakllantiruvchi poydevordir. Asarning asosiy voqealari Asqarning poytaxtdagi talabalik ostonasidagi hayoti bilan chambarchas bog'liq. Bu bosqichda Shukur Xolmirzayev qahramonni faqatgina kitob ko'targan abituriyent emas, balki hayotning turli ranglarini ko'ra boshlagan yosh yigit sifatida tasvirlaydi. Asqar Toshkentga kelib, yotoqxonaga joylashar ekan, u yerda o'zi kabi o'nlab, yuzlab "o'n sakkiz yoshli" taqdirnlarni uchratadi. Har birining o'z maqsadi, o'z dunyosi bor. Muallif yotoqxonaga hayotini shunday tasvirlaydiki, bu shunchaki uxlab dam oladigan joy emas, balki yoshlarning dunyoqarashi va fe'l-atvori shakllanadigan haqiqiy hayot maktabidir. Asqarning xonadoshlari va yangi do'stlari bilan bo'lgan muomalasi asardagi barcha voqealarni harakatga keltirib turadi. "Ba'zi yoshlar o'qishni muqaddas bilsa, boshqalari uchun shahar - bu ko'ngilxushlik va mas'uliyatdan qochish maydonidir"-deydi u. Asqar mana shu ikki qutb orasida qoladi. Uning ichidagi "qishloqi soddalik" va "shaharona erkinlikka intilish" hissi doimiy kurashda bo'ladi. Masalan, asardagi bazmlar, kechki sayrlar va bemaqsad vaqt o'tkazish sahnalarida Asqarning ikkilanishlari juda aniq ko'rsatilgan. U bir tomondan o'zini zamonaviy ko'rsatishni istasa, ikkinchi tomondan vijdon azobi — otasining peshona teri bilan yuborgan pullari va onasining umidvor nigohlari uni to'xtatib turadi.⁴

² **Shukur Xolmirzayev** – «Tanlangan asarlar» (jildliklari).

³ Adabiy-tanqidiy maqolalar (masalan, Shukur Xolmirzayev ijodiga bag'ishlangan respublika ilmiy jurnallari)

⁴ **Rahmon Qo'chqor.** "Shukur Xolmirzayev olami". (Adibning ijodi va qahramonlari tahliliga oid maqolalar to'plami).

Asardagi ayol obrazlari va ilk muhabbat mavzusi ham alohida e'tiborga loyiq. O'n sakkiz yoshda sevgi — bu dunyodagi eng muhim tuyg'u kabi tuyuladi. Asqarning qizlar bilan bo'lgan muloqoti, uning ko'ngil qo'yishi va bu yo'ldagi xomxayollari yozuvchi tomonidan psixologik jihatdan chuqur tahlil qilingan. Bu tuyg'u Asqarni goh osmonlarga olib chiqadi, goh yerga uradi. Muhabbat sababli u darslarini unutadi, vaqtini behuda sarflaydi va natijada hayotning "tarsakisi"ga duch keladi. Shukur Xolmirzayev bu orqali yoshlikdagi his-tuyg'ularning naqadar aldamchi va o'tkinchi bo'lishi mumkinligini uqtiradi. Shuningdek, asarda kattalar va yoshlar o'rtasidagi munosabatlar ham o'z aksini topgan. Asqarning ota-onasi bilan bo'lgan voqea bo'lsa-da, ularning xatlari yoki xayolidagi siymolari qahramonni tiyib turuvchi asosiy kuchdir.⁵Poytaxtning yaltiroq chiroqlari va jozibali hayoti Asqarni o'z domiga tortmoqchi bo'lganida, aynan mana shu qadriyatlar zanjiri uni butunlay yiqilishdan asrab qoladi. Biroq, Asqar baribir xato qiladi. Uning xatolari — bu uning tajribasizligi mevasi. U imtihonlardan yiqilishi yoki qandaydir yomon vaziyatlarga tushib qolishi - bularning barchasi "o'n sakkiz yosh" degan ulkan imtihonning savollaridir. Asqar obrazi orqali muallif yana bir muhim haqiqatni ochadi: inson o'z xatosini tan olmaguncha ulg'aymaydi. Asqar asar davomida bir necha bor o'zini oqlashga harakat qiladi, aybni sharoitga yoki boshqalarga ag'darmoqchi bo'ladi. Ammo vaqt o'tishi bilan u anglaydiki, uning taqdiri faqat o'z qo'lida. Bu anglash esa og'riqli jarayondir. Shukur Xolmirzayevning ushbu asari o'zbek adabiyoti xazinasida aynan mana shu "ruhiy uyg'onish" tasviri bilan qadrlidir. Yosh kitobxon Asqarning sarguzashtlarini o'qir ekan, beixtiyor o'zining hayotidagi o'xshash vaziyatlarni eslaydi va xulosa chiqaradi.

Xulosa o'rniida aytish mumkinki, ushbu asar bugungi yoshlar uchun ma'naviy yo'lchi vazifasini o'taydi. Asqar obrazi har bir yigit-qizni erkinlikni mas'uliyat bilan bog'lashga o'rgatadi. Zero, haqiqiy ulg'ayish — o'z xatolarini tan olish va ulardan xulosa chiqarishdir. Men tengdoshlarimga shuni tavsiya qilaman: bu asarni hayot ko'zgusi sifatida o'qing. Sizlarga shuni maslahat beramanki, 18 yoshning oltin damlarini bemaqsad ishlarga emas, balki ilm va kamolotga sarflang. Unutmang, bugun tashlagan har bir qadamingiz ertangi taqdiringiz poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [Shukur Xolmirzayev – «O'n sakkizga kirmagan kim bor»](#) (Qissa va hikoyalar) – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2017.
2. **Shukur Xolmirzayev** – «Tanlangan asarlar» (jildliklari).
3. Adabiy-tanqidiy maqolalar (masalan, Shukur Xolmirzayev ijodiga bag'ishlangan respublika ilmiy jurnallari)
4. **Rahmon Qo'chqor**. "Shukur Xolmirzayev olami". (Adibning ijodi va qahramonlari tahliliga oid maqolalar to'plami).
5. **Ziyouz.com** yoki **Noshir.uz** kabi elektron kutubxonalar — Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodiy yo'liga oid ma'lumotlar.

⁵ **Ziyouz.com** yoki **Noshir.uz** kabi elektron kutubxonalar — Shukur Xolmirzayevning hayoti va ijodiy yo'liga oid ma'lumotlar.

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA BADIY DETAL VA TASVIR OB'EKTIVLIGI MASALASI

To`xteyeva Shaxzoda Omon qizi
Termiz davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev hikoyanavislik mahoratining fundamental tamoyillari, xususan, badiiy detalning matn qurilmasidagi funksional vazifalari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda adibning "Notanish odam", "Ko'ngil", "O'zbek bobo" kabi turli davrlarda yaratilgan asarlari asosida detalning qahramon xarakterini ochish, peyzaj va interyer tasvirini individuallashtirish hamda asarning umumiy falsafiy konsepsiyasini yuzaga chiqarishdagi o'rni yoritilgan. Muallif Shukur Xolmirzayev uslubiga xos bo'lgan tasvir ob'ektivligi va "quyug' detallashtirish" tamoyillarini Abdulla Qahhor an'analari bilan qiyoslagan holda, adibning milliy ruhni ifodalashdagi o'ziga xos yo'sinini dalillaydi. Shuningdek, maqolada mustaqillik davri hikoyalarida janr hajmining kengayishi natijasida detallarning zanjirsimon bog'lanishi va ularning estetik yukining ortishi masalalari ilmiy muomalaga kiritilgan.

Kalit so'zlar: Detal, badiiy mahorat, hikoya, peyzaj, portret, interyer, Shukur Xolmirzayev, Abdulla Qahhor, tasvir ob'ektivligi, milliy ruh.

O'zbek adabiyoti, xususan, hikoyachilik janri taraqqiyotini Abdulla Qahhor va Shukur Xolmirzayev siymolarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har ikki ijodkor ham kichik epik janrning imkoniyatlarini yuksaltirish, asar matnida har bir so'z va detalning o'z o'rnida bo'lishiga erishish borasida ulkan ishlarni amalga oshirganlar. Shukur Xolmirzayev o'zining ellik yillik ijodiy yo'lida qissa, roman va dramalar yaratgan bo'lsa-da, o'zini birinchi navbatda hikoyanavis deb bilar va umr bo'yi ushbu shaklga sodiq qoldi.

Yozuvchi ijodining o'ziga xosligi — uning tasvirda kam gapirib, ko'p ma'no berishga intilishida ko'rinadi. U hikoyalarida voqeaga deyarli aralashmaydi, mualliflik izohidan qochadi va asosan qahramonlarning o'ziga so'z beradi. Bu uslub adabiyotshunos Odil Yoqubov tomonidan quyidagicha ta'riflangan edi: *"Shukur Xolmirzayev tasvirni juda quyug' detallashtiradi, o'zi go'yo aralashmaydi... Siz o'qimaysiz, go'yo kartina tomosha qilasiz"*.

Detal — badiiy tasvirdagi muayyan bir kichik bo'lak (uzv) bo'lib, asar qurilmasini yuzaga keltirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida detallar bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi:

1. Peyzaj (Tabiat tasviri)

Yozuvchi tabiatni shunchaki fon sifatida emas, balki asar g'oyasining uzviy qismi sifatida tasvirlaydi. "Ko'ngil" hikoyasida qishga xos detal: *"Bu yerda tuman bor edi. Shuning uchun qor siyrak va yumshoq yog'ardi"* tarzida beriladi. Bu yerda tuman tufayli qorning yumshoq yog'ishi o'quvchi ko'z o'ngida aniq manzara hosil qiladi. "Bir ko'rgan tanish" hikoyasidagi *"sap-sariq barglarni qisir-qisir bosib"* yurish detali esa voqeaning kuz faslida kechayotganini obrazli ifodalaydi.

2. Portret va Inson ruhiyati

Adib portret yaratishda ham kontrastli detallardan ustalik bilan foydalanadi. "Notanish odam" hikoyasidagi qahramonning *"qirg'iz bashara, lekin qoshlari quyuq"* deya tasvirlanishi uning o'ziga xos qiyofasini gavdalantirishga xizmat qilgan. Shuningdek, qahramonlarning harakatlari orqali ularning ichki dunyosi ochiladi. Masalan, o'sha hikoyada notanish kishining yomg'ir ostida shox-shabba terishi — uning kuzatuvchan, tajribali va insonparvar ekanligidan dalolat beradi.

3. Interyer (Xona tasviri)

Xolmirzayev asosan tashqi tasvirga (peyzajga) moyil bo'lsa-da, zarur o'rinlarda interyer detallaridan mahorat bilan foydalanadi. "Ko'ngil" hikoyasida pechka, ko'rpacha va po'stak tasviri o'zaro birlashib, qishki qishloq xonadonining muhitini yaratadi. *"Muzlab tarashaday bo'lib qolgan shim"* detali esa qahramonning tog'da og'ir sharoitda ov qilganini aniqlashtiradi. Shuningdek, po'stak detali milliy-maishiy hayot tarzining (ovchilik va chorvachilik muhiti) o'ziga xos belgisidir.

Maqolada asosiy e'tibor qaratilgan "Notanish odam" (1960) hikoyasidagi detallar zanjiri asar konsepsiyasini yuzaga chiqaradi. Hikoyadagi:

- *"Shuvoq isi aralash tutun";*
- *"Nam shuvoq hidi";*
- *"Cho'ldan ko'tarilgan bulut"* kabi detallar yagona strukturani hosil qiladi.

Ayniqsa, "cho'ldan ko'tarilgan bulut" detali eng muhim uzvdir. Tajribasiz yosh ovchi (roviy) bu bulutga ahamiyat bermaydi va yomg'irda qolib ketadi. Kamardagi tajribali kishi esa bu detal orqali ob-havoni aniq bashorat qiladi, bu esa uning xalq donoligini o'zida jamlagan inson ekanini ko'rsatadi.

Mustaqillik davriga kelib, Shukur Xolmirzayev hikoya janrining hajmini kengaytirish borasida dadil tajribalar qila boshladi. Sayyora Xolmirzayeva ta'kidlaganidek, adibning so'nggi hikoyalari hajm va niyat ko'lami jihatidan qissa darajasiga ko'tarilgan.

"O'zbek bobo" hikoyasida (192 sahifa) detallar yanada batafsillashgan. Masalan, qarovsiz bog'dagi peshayvon tasviri: *"yemirilib-uvalanib tushgan supalar"*, *"chumchuq inlaridan osilib yotgan xas-xashaklar"*, *"qorayib ketgan bo'yra"* va

"sichqonlar chiqargan ho'l tuproq" detallari orqali tushkunlik va qarovsizlik ruhiyati juda kuchli tasvirlangan.

Shuningdek, hayvonlar harakati bilan bog'liq detallar ham diqqatga sazovor:

1. Sigirning "fashsh" etib nafas olishi;
2. Tanish mol va tezak hidi;
3. Sigirning tumshuqlari tuproq va chang bo'lgani. Ushbu "zanjirsimon" detallar majmuasi tasvirning hayotiy haqqoniyligini maksimal darajaga ko'targan.

Shukur Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligini yangi bosqichga olib chiqqan san'atkordir. Uning ijodida detal shunchaki tasvir vositasi emas, balki asar kompozitsiyasini ushlab turuvchi, qahramon xarakterini ochib beruvchi va tasvir ob'ektivligini ta'minlovchi fundamental unsirdir. Yangi va betakror obrazlar yaratish, milliy ruhni detallar orqali ifoda etish yozuvchi mahoratining eng yorqin qirralaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Sh. Xolmirzayev. Saylanma. 1-jild. – T.: "Sharq", 2013.
2. Sh. Xolmirzayev. Saylanma. 3-jild. – T.: "Sharq", 2013.
3. B. Shukurova. "Shukur Xolmirzayev hikoyalarida xarakterlar talqini". Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Jizzax, 2021.
4. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. – T.: "Yozuvchi", 2000.
5. Karimov N. va b. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T.: "O'qituvchi", 1999.

BADIIY ADABIYOT- IJODIY QOBILIYATNI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Xamrayeva Firuza Azimovna

Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqola badiiy adabiyotning o‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada badiiy asarlarni o‘qish jarayonida o‘quvchilarda tasavvur, fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiyot darslarida ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik vositalar va pedagogik texnologiyalar ko‘rib chiqiladi. Badiiy adabiyot orqali o‘quvchilarning tasavvur doirasi kengayadi, ijodiy fikrlash qobiliyati mustahkamlanadi va shaxsiy ifoda ko‘nikmalari rivojlanadi.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, ijodiy qobiliyat, o‘quvchi, tasavvur, ijodiy fikrlash, pedagogik metodlar, darslik, shaxsiy ifoda.

Kirish. Badiiy adabiyot insonning ruhiy, ma’naviy va intellektual dunyosini boyituvchi, fikrlash, tasavvur va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi muhim vositalardan biridir. U o‘quvchida nafaqat ma’naviy-estetik didni shakllantiradi, balki ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlarni anglashga ham yordam beradi. Badiiy asarlarni o‘qish jarayonida o‘quvchi hikoya, doston yoki she’rdagi voqealarni o‘rganadi, undagi obrazlar, xarakterlar, ularning qiyosiy va mantiqiy bog‘liqligini tahlil qiladi, yangi g‘oyalarni yaratish va muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantiradi.

Ijodiy qobiliyat – bu shaxsning o‘z fikrini erkin ifoda etish, yangicha va original yechimlar topish, tasavvurini kengaytirish qobiliyatidir. Badiiy adabiyot esa bu jarayonda o‘quvchiga boy material manbai bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, qahramonlarning turli vaziyatlardagi harakatlarini tahlil qilish, ularning qarorlaridagi mantiqiy va axloqiy jihatlarni o‘rganish, o‘quvchida tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantiradi. Shu bilan birga, she’riyat, ertak va hikoyalar orqali o‘quvchi o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni, obrazlar va voqealar orqali yangi g‘oyalarni yaratishni o‘rganadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy adabiyot darslarida ijodiy yondashuvlarni qo‘llash o‘quvchilarning nafaqat intellektual, balki shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchini voqealarni tahlil qilishga undash, muammoli vaziyatlarni yaratish va ularni hal qilish jarayonida fikrini erkin ifoda etishga rag‘batlantiradi. Shu tariqa, badiiy adabiyot orqali o‘quvchida ijodiy faollik, mustaqil fikrlash va tasavvur qobiliyati rivojlanadi.

Bundan tashqari, badiiy adabiyot ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. U orqali o'quvchi boshqalar bilan muloqot qilish, hissiyotlarni anglash, empatiya va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shu sababli, badiiy adabiyot nafaqat ta'lim vositasi, balki o'quvchining shaxsiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlovchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Badiiy adabiyot o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. U nafaqat fikrlash va tasavvur doirasini kengaytiradi, balki shaxsiy ifoda va ijodiy faoliyatni shakllantiradi. Badiiy asarlar orqali o'quvchi voqea rivojini kuzatadi, xarakterlarni tahlil qiladi, ularning qarorlari va his-tuyg'ularini o'rganadi. Bu jarayon o'quvchida tanqidiy fikrlashni, mantiqiy va ijodiy qarorlar qabul qilishni rivojlantiradi.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda badiiy adabiyot darslarida bir qancha metod va yondashuvlardan foydalanish mumkin:

Muammoli vaziyatlar yaratish – o'quvchiga badiiy asar asosida muammolarni aniqlash va ularni yechish imkoniyatini berish, yangi g'oyalar ishlab chiqishga rag'batlantiradi. Masalan, ertak yoki hikoyadagi qahramon qarorini o'quvchi boshqacha yechim bilan yakunlay oladimi, degan savol berish orqali ijodiy fikrlash faollashadi. Shu tarzda o'quvchi voqea rivojini prognoz qilish, sabab-natija munosabatlarini tahlil qilishni o'rganadi.

Tasviriy va ijodiy mashqlar – o'quvchidan matndagi voqealarni tasvirlash, yangi personaj yaratish yoki voqeani boshqacha yo'l bilan davom ettirish talab qilinadi. Bu ijodiy tasavvurni rivojlantiradi, shaxsiy ifoda ko'nikmalarini mustahkamlaydi va o'quvchining o'z fikrini matn orqali ifoda qilish qobiliyatini oshiradi.

Tahlil va munozara metodlari – badiiy matnni o'rganishda o'quvchini matn mazmuni, qahramon xarakteri va voqealar mantiqini tahlil qilishga jalb qilish. Guruh muhokamasi orqali fikr almashish o'quvchining ijtimoiy va ijodiy ko'nikmalarini oshiradi, jamoaviy ishlashga rag'batlantiradi. Shu bilan birga, o'quvchi boshqa fikrlarni tinglash, baholash va yangi qarorlar ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi.

Hissiy va estetik rivojlanish – badiiy adabiyot o'quvchida hissiyotlarni anglash, empatiya va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi. Masalan, milliy ertaklar, qissa va hikoyalar orqali o'quvchi insoniy fazilatlar – do'stlik, halollik, mehr-shafqat, sabr-toqat kabi xususiyatlarni o'rganadi va o'zida shakllantiradi. Shu bilan birga, she'riyat orqali o'quvchi o'z hissiyotlarini ifoda etish, turli hissiy holatlarni boshqarish va san'at orqali o'zligini anglash imkoniga ega bo'ladi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llash – zamonaviy ta'lim jarayonida multimediali taqdimotlar, audio va video materiallar yordamida badiiy asarlarni ko'rgazmali tarzda o'rganish o'quvchining qiziqishini oshiradi va ijodiy fikrlash jarayonini yanada faol

qiladi. Masalan, o'quvchilar hikoya qahramonlarini animatsiya yoki dramatik sahnada aks ettirish orqali tasavvur va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlashlari mumkin.

Shuningdek, pedagogik tajribalar shuni ko'rsatadiki, badiiy adabiyot darslarida ijodiy yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarning umumiy ta'lim samaradorligini oshiradi. O'qituvchi matnlar bilan ishlash jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishi mumkin: rol o'yinlar, drammatizatsiya, matnni turli nuqtai nazardan qayta yozish, hikoyaning davomini yaratish kabi mashqlar o'quvchining ijodiy faolligini oshiradi va fikrlash doirasini kengaytiradi.

Badiiy adabiyotning ijodiy qobiliyatni shakllantirishdagi roli nafaqat o'quvchining akademik ko'nikmalarida, balki uning kundalik hayotida ham qo'llaniladi. O'quvchi turli vaziyatlarda yangicha qarorlar qabul qilish, muammolarni kreativ yo'l bilan yechish va shaxsiy ifodani rivojlantirish imkoniga ega bo'ladi. Shu sababli, badiiy adabiyot pedagogik jarayonda ijodiy qobiliyatni shakllantirishning samarali va ajralmas vositasi sifatida katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Badiiy adabiyot o'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. U o'quvchida tasavvur, tanqidiy fikrlash va shaxsiy ifoda ko'nikmalarini shakllantiradi, shuningdek, hissiy va ma'naviy rivojlanishga hissa qo'shadi. Maqolada ko'rsatib o'tilganidek, badiiy asarlarni o'rganish jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, tasviriy mashqlar, tahlil va munozara metodlarini qo'llash o'quvchining ijodiy faolligini oshiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv metodlarni badiiy adabiyot darslarida qo'llash ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda samaradorlikni oshiradi. O'quvchi badiiy matnlarni turli nuqtai nazardan tahlil qilib, voqealarni boshqacha yo'l bilan davom ettirishi, yangi obrazlar yaratishi va o'z hissiyotlarini ifoda etishi mumkin. Shu bilan birga, badiiy adabiyot o'quvchida ijtimoiy ko'nikmalarni, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu sababli, badiiy adabiyot nafaqat ta'lim vositasi, balki o'quvchilarning shaxsiy va ijodiy rivojlanishini ta'minlovchi samarali pedagogik vosita sifatida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizov, S. (2018). Badiiy adabiyot va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Fan.
2. Qodirov, T. (2017). Pedagogik psixologiya va adabiyot darslari. Toshkent: O'qituvchi.
3. Sobirov, A. (2021). O'quvchilarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda badiiy adabiyotning roli. Toshkent: Ta'lim-nashr.

4. Bahodirova, D. (2016). She'riyat va hikoya orqali tasavvur doirasini kengaytirish. Toshkent: Fan va Ta'lim.
5. Xolmirzayeva, L. (2018). Badiiy asarlar va o'quvchining shaxsiy ifodasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

TARJIMADA PERSONAJLAR PORTRETINING IFODALANISHI

Asqarova Dilobar Saidikrom qizi

O‘zDJTU o‘qituvchisi

Telefon:(94)619 02 92

dilobarasqarova@uzswlu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarjimada personajlar portretining ifodalanishi ko‘rib chiqildi. Ushbu maqolani yozishdan maqsad bir tildan boshqa tilga o‘girilgan asarlar tarjimalarini tahlil qilishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishdan iborat. Tarjimadagi yutuq va kamchiliklarini aniqlash, tarjimon mahoratini o‘rganish bo‘yicha fikr-mulohazalar, tarjimashunos olimlarning fikrlari orqali o‘rganilib tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: tasvir, personaj, tarjimon mahorati, taqqoslash, badiiy asar, portret, badiiylik, tavsif.

KIRISH

Badiiy adabiyot va san‘at badiiy asar shaklida yashaydi, shunga ko‘ra, badiiy asar adabiyot va san‘atning yashash shakli hisoblanadi. Shuning uchun, badiiy asarning asosiy mezonini badiiylik tashkil qiladi desak adashmaymiz. Asardagi badiiylik uning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Badiiylik – san‘atning ham joni, ham ruhi ekan, uni yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri – badiiy obrazdir [6:32]. Demak, badiiylikning markazida badiiy obraz turadi. Badiiy obrazning yaratilishida hamda maromiga yetkazib tasvirlanishida muallifning o‘rni, ya‘ni uning bilim va saviyasi, ijodkorligi, so‘z boyligi muhim omillardan hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda “badiiy obraz” atamasi ham keng, ham tor ma‘nolarda ishlatiladi. Keng ma‘noda “badiiy obraz” deganda, borliqning san‘atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ijodiy qayta ishlangan har qanday aksi jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, tabiat obrazlari nazarda tutilsa, tor ma‘noda badiiy asardagi inson obrazi tushuniladi. Obrazga bevosita yozuvchining o‘zi tomonidan berilgan ta‘rif “muallif xarakteristikasi” deb yuritiladi. Muallif xarakteristikasida obrazning fe‘l-atvoriga xos asosiy xususiyatlar bayon qilinadi. Muallif xarakteristikasi o‘quvchida personaj haqida yaxlit tasavvur hosil qilib, uning keyingi xatti-harakatlarini, gap-so‘zlarini anglashida muhim ahamiyat kasb etadi. Personajning so‘z bilan chizilgan tashqi qiyofasi – portret ham inson obrazini yaratishda muhim vosita sanaladi. Portret, avvalo, personajning o‘quvchi ko‘z oldida konkret inson sifatida gavdalanishiga ko‘maklashadi. Ikkinchi tomondan, badiiy asarda portret xarakterologik belgilarga ega bo‘ladi. Ya‘ni yozuvchi personaj siyratiga xos xususiyatlarni suratida aks ettirishga intiladi [4:68-69].

Badiiy asar haqida soʻz borar ekan, unda qahramon tasviri muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, asarning tushunarli, shuningdek, taʼsirli boʻlishi uchun oʻquvchi ongida, avvalo, obraz mantiqiy jihatdan shakllangan boʻlishi joiz. Bu jihatdan, portret tasviri yozuvchi oʻz maqsad-muddaosini yetkazishda yordamchi vazifasini oʻtaydi. Shu bilan bir qatorda tarjimon yozuvchi uslubini saqlash, asar badiiyligiga putur yetkazmaslik uchun yozuvchi uslubidan chetga chiqmagan holda asliyatga muvofiq ravishda tarjima qilishi kerak. Xususan, badiiy tarjimada muhim ahamiyat kasb etuvchi omil bu badiiylarning toʻlaqonli qayta yaratilishi hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Portret (fr. *portraire* – tasvirlamoq) personajning soʻz vositasida tasvirlangan tashqi koʻrinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-koʻz ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), oʻquvchi tasavvurida jonlanadigan toʻlaqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri boʻlmish tavsifning bir koʻrinishidir” [3:836]. Demak, badiiy asardagi portret tasviri asarni mukammal boʻlishi uchun bir vosita hisoblanar ekan. Shu bilan birga, tarjimon ham tarjima qilinayotgan asarning ruhini his eta olishi, muallifning dunyoqarashini toʻla anglab yetishi ham muhim.

Tarjima jarayoni boshqa madaniyatni anglashga qaratilgan jarayonlardan biridir. Tarjima qilingan asar boshqa madaniyatning bir parchasi sifatida qaraladi [1:4].

Tarjimon uchun soʻz tanlashning mashaqqati yana ham koʻproq. Chunki, u asarni oʻz tiliga agʻdarar ekan, unda tasvirlangan narsani ifodalash uchun yigirmatalab soʻzlar orasidan oʻzi istaganlarini ishlata olmaydi. Masalan, biron sohibjamol qizning tasvirini yaratishda tarjimon asar doirasidan chetga chiqolmaydi. Ehtimol, tarjimon yozuvchi ishlatgan soʻzlarga nisbatan tamomila boshqacha: soddaroq, jonliroq, musiqiyroq soʻzlar vositasi bilan sohibjamol qiz portretini yanada nafisroq qilib yarata olishi mumkindir, ammo u bunday qilolmaydi. Tarjimon faqat avtor ifodalagan fikrni oʻz tiliga haqqoniy qayta tiklash doirasida soʻz tanlash erkinligiga ega. Agar tanlangan soʻz asl nusxadagi soʻzga muvofiq tushsa, oʻsha soʻzning magʻzida yashirinib yotgan maʼno bizning tilimizda tiriladi, aksincha, agar unga toʻliq muvofiq boʻlmasa, fikrni noaniq va mujmal qilib qoʻyishi mumkin [5:166]. Tarjimashunoslar portret tavsifini shartli ravishda bir necha guruhga ajratadilar. Ulardan biri koʻrinishli portret tasviri boʻlib, u personajning tashqi qiyofasi, egnidagi libos, unga tegishli boʻlgan ashyolar tafsilotini oʻz ichiga oladi. Yana biri – personajning holati tasviri boʻlib, bunda tashqi qiyofa koʻrinishidagi oʻzgarishlar vositasida ichki dunyosiga kirib boriladi. Bu yerda personajga beriladigan maʼnaviy-axloqiy taʼrif muhim ahamiyat kasb etadi [2:74].

Tarjima qilinadigan muallif va uning asari bilan tarjimon oʻrtasida til topishish boʻlishi zarur. Bunda til topishish deganda, muallifning oʻziga xosliklarini va muayyan

asarning badiiy xususiyatlarini teran anglash va shunga yarasha jarayonni tashkil etishni tushunamiz. Tarjima qilinadigan muallif va uning asarini tarjimon sevgandagina, uning o‘z o‘quvchisiga katta ma’naviy foyda keltirishini bilgandagina til topish juda katta ijodiy foyda keltiradi [7:115]. Darhaqiqat, tarjimon agar asliyatni to‘laqonli his qilib, so‘zlarning ma’nolarini yaxshi anglay olsa, tarjima ham muvaffaqiyatli bo‘ladi. Chunki, tarjima asarni kitobxonlar xuddi asliyatdagidek qabul qilishlari kerak. Shu sababdan, tarjima muvaffaqiyatsiz bo‘lsa, asliyatga ham putur yetadi, chunki, kitobxon asarni ham tarjima kabi tasavvur qilib mutolaa qiladi. Bunday holatlarga yo‘l qo‘yilmasligi uchun tarjimon asliyat bilan til topishishi, tarjimada ham ayniqsa, portret tasviri tarjimasini yaratishda tasvirlarni jonli, uslubiy g‘alizliklarsiz berishga urinishi lozim.

Badiiy asarda bayon etiladigan portret tasviri ushbu badiiy asarning mohiyatini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi. Chunki, ushbu omil yozuvchining naqadar ijodkorligi, uning badiiy tasvir vositalaridan nechog‘lik unumli foydalana olganini belgilab beradi. Shu bilan birga asar tarjimonidan ham juda mahoratli bo‘lish, so‘zga ustalik, ham o‘zbek tilini, ham o‘z tarjimonligini olib boradigan tilni mukammal bilishi talab etiladi.

XULOSA

Tarjima bir qarashda osongina ishga o‘xshaydi. Hatto, “til bilsam tarjima qilib ketaverman-da” deydiganlar ham topiladi. Lekin, asar boshqa tilda qayta yaratiladi. Bunda tarjimon ham ijodiy yondashishi, so‘z, jumla, ibora tanlashda mohir bo‘lishi, shu bilan birga yozuvchi uslubidan chiqib ketmagan holda ish yuritishi kerak. Asliyatdan yaratilgan tarjima o‘zi alohida bir asarga aylanadi. Ammo, tarjimon yozuvchi kabi erkin bo‘la olmaydi, chunki, erkin tarjima yo‘lidan borsa u asar tarjimasini qiymatini yo‘qotadi. Qilingan tarjima asar agar juda mohirona o‘girilsa, hatto, asliyatdan ham ko‘proq mashhurlikka erishishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bassnett S. Translation studies. – London: University of Warwick, 2002. – 188 p.
2. Ҳамидов Х.Х. Ўзбек-турк таржимачилигининг долзарб муаммолари(1991-2017 йиллар). – Тошкент: ТДШИ, 2019. – 112 б.
3. Jo‘rayeva M., Tojaliev N. “Judolik diyori” romanida portret tasviri // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, №3(2), 2023. – B. 836-841.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 224 b.
5. Саломов Ф. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966. – 382 б.

6. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.
7. G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – 212 b.

GENDERED LANGUAGE IN ENGLISH FASHION MAGAZINES: A LINGUISTIC PERSPECTIVE

Eshmamatova Sevara Abdurahmonovna

Master's student at Termez University of Economics and Service

Xudoynazarova O'g'lonoy

Scientific supervisor, PhD

Annotation: *This study explores the manifestation and functions of gendered language in English fashion magazines from a linguistic perspective. It examines how lexical choices, stylistic devices, and discursive strategies contribute to the construction and reinforcement of gender identities within fashion discourse. The research is based on a qualitative analysis of selected fashion magazine articles, focusing on gender-specific vocabulary, evaluative adjectives, and metaphorical expressions. Particular attention is paid to how femininity and masculinity are linguistically framed, as well as how language reflects broader socio-cultural norms and expectations. The findings demonstrate that gendered language in fashion media not only mirrors societal ideologies but also actively shapes readers' perceptions of identity, beauty, and style.*

Keywords: *gendered language, fashion discourse, lexical features, stylistic devices, gender identity, English magazines, discourse analysis*

Аннотация: *Данное исследование посвящено анализу гендерно маркированного языка в английских модных журналах с лингвистической точки зрения. В работе рассматривается, каким образом лексические единицы, стилистические средства и дискурсивные стратегии способствуют формированию и закреплению гендерных идентичностей в модном дискурсе. Материалом исследования послужили тексты современных модных изданий, в которых анализируются гендерно обусловленная лексика, оценочные прилагательные и метафорические выражения. Особое внимание уделяется языковым средствам, отражающим представления о женственности и мужественности, а также их социокультурной обусловленности. Результаты исследования показывают, что гендерный язык не только отражает общественные стереотипы, но и активно влияет на формирование представлений о стиле, красоте и идентичности.*

Ключевые слова: *гендерный язык, модный дискурс, лексические особенности, стилистические средства, гендерная идентичность, английские журналы, дискурс-анализ*

***Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot ingliz tilidagi moda jurnallarida qo'llaniladigan genderga xos til birliklarini lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Unda leksik tanlovlar, stilistik vositalar va diskursiv strategiyalar orqali gender identifikatsiyasining qanday shakllanishi va mustahkamlanishi o'rganiladi. Tadqiqot materiali sifatida tanlangan moda jurnallari matnlari asosida genderga xos so'zlar, baholovchi sifatlar hamda metaforik ifodalar tahlil qilinadi. Ayniqsa, ayollik va erkaklik tushunchalarining til orqali qanday ifodalanishi hamda ularning ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi alohida yoritiladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, moda diskursidagi genderga xos til nafaqat jamiyatdagi stereotiplarni aks ettiradi, balki o'quvchilarning identitet, go'zallik va uslub haqidagi tasavvurlarini shakllantirishda faol rol o'ynaydi.*

***Kalit so'zlar:** gender til, moda diskursi, leksik xususiyatlar, stilistik vositalar, gender identifikatsiyasi, ingliz jurnallari, diskurs tahlili*

INTRODUCTION

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirishi, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam berishi hamda tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ta‘lim jarayonini interaktiv va moslashuvchan qilish imkonini bermoqda.

Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etishda qator muammolar ham mavjud. Jumladan, pedagoglarning ushbu texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha yetarli malakaga ega emasligi, metodik ta‘minotning to‘liq shakllanmaganligi va texnik infratuzilmaning cheklanganligi bu jarayon samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, unda oliy ta‘lim tizimida talabalarning tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ta‘lim jarayonini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi – talabalarning tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligini aniqlash hamda ularni amaliyotga joriy etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodlari.

O‘zbek pedagog olimlari ta‘lim jarayonini modernizatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o‘rniga alohida e‘tibor qaratadilar. Jumladan, N. Muslimov va B. Xodjaevlar o‘z tadqiqotlarida innovatsion pedagogik yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, ta‘lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish talabalarni faollashtirib, ularning analitik va ijodiy tafakkurini shakllantiradi.

Shuningdek, A. Avloniy pedagogik qarashlarida ham mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash g‘oyasi markaziy o‘rin egallaydi. U ta‘lim jarayonida o‘quvchining fikrlash faoliyatini rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida ko‘rsatadi. Bu g‘oyalar zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan uyg‘unlashadi.

MDH olimlari orasida V. Davydov va L. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan rivojlantiruvchi ta‘lim nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko‘ra, o‘quv jarayoni shaxsning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishi kerak. Ayniqsa, Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi talabalarning kognitiv rivojlanishida muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotchilar orasida P. Facione tanqidiy fikrlashni tahliliy baholash, dalillash va mantiqiy xulosa chiqarish bilan bog'laydi. Uning fikricha, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun faol va interaktiv o'qitish metodlari zarur.

Kreativ fikrlash masalasida esa E. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar keng qo'llaniladi. U kreativlikni g'oyalar oqimi, moslashuvchanlik va originallik orqali baholaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotchilar (Trilling va Fadel) XXI asr ko'nikmalari konsepsiyasida tanqidiy va kreativ fikrlashni asosiy kompetensiyalar qatoriga kiritadi. Ularning fikricha, innovatsion texnologiyalar ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko'rsatadiki, turli ilmiy maktablar vakillari tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhimligini bir ovozdan e'tirof etadilar. Shu bilan birga, ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun metodik, texnologik va didaktik omillarni kompleks ravishda hisobga olish zarurligi ta'kidlanadi.

Tadqiqot tizimli, eksperimental va qisman kuzatuv metodlariga asoslangan holda olib borildi. Tadqiqot dizayni ikki guruhli taqqoslama model asosida tashkil etildi.

Ishtirokchilar: 60 nafar talaba (30 — eksperimental, 30 — nazorat).

Eksperimental sharoit:

- muammoli vaziyatlarga asoslangan o'qitish;
- loyiha faoliyati orqali amaliy bilimlarni shakllantirish;
- interaktiv raqamli platformalar (onlayn muhokama, real vaqtli fikr almashinuvi);
- ochiq savollar va divergent fikrlash texnikalari.

Nazorat sharoiti:

- an'anaviy ma'ruza va reproduktiv o'qitish usullari.

Baholash mezonlari:

- tanqidiy fikrlash darajasi (tahlil, dalillash, xulosa chiqarish);
- kreativ fikrlash (g'oyalar soni, moslashuvchanlik, originallik);
- o'quv faolligi va ishtirok ko'rsatkichi.

Tahlil usullari:

- foizli solishtirma tahlil;
- dinamik o'zgarishlarni kuzatish;
- sifat tahlili (talabalarning javoblari va faoliyati asosida).

Natijalar

Olingan natijalar eksperimental guruhda sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatdi.

- Tanqidiy fikrlash ko‘rsatkichlari o‘rtacha **28% ga oshdi**
- Kreativ fikrlash darajasi **32% ga yuqoriladi**
- Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati **30% ga oshdi**


Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 9–12% oralig‘ida qoldi.

Ekspirimental guruh talabalari:

- muammolarni chuqurroq tahlil qila boshladi;
- bir nechta alternativ yechimlar ishlab chiqdi;
- o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga o‘tdi.

Bu natijalar innovatsion metodlarning an’anaviy yondashuvlarga nisbatan ustunligini aniq ko‘rsatadi.

1-rasm. Talabalarning fikrlash ko‘rsatkichlari (grafik)



Izoh: Ushbu diagrammada eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqlar aks ettirilgan. Ekspirimental guruhda tanqidiy fikrlash (28%), kreativ fikrlash (32%) va mustaqil qaror qabul qilish (30%) ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori ekanligi ko‘rinadi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 9%, 11% va 12% ni tashkil etadi. Bu natijalar innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarning yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi. Xususan, muammoli o‘qitish talabalarni faol fikrlashga majbur qiladi, loyiha asosida o‘qitish esa ularni real vaziyatlarga moslashishga o‘rgatadi.

Raqamli texnologiyalar esa ta’lim jarayonini individuallashtirish va interaktivlikni oshirish orqali o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, talabalarning

o‘zaro hamkorlikda ishlashi ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Biroq, ushbu yondashuvlarni joriy etishda metodik tayyorgarlik, texnik baza va o‘qituvchilarning malakasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar boshqa zamonaviy tadqiqotlar bilan uyg‘un bo‘lib, innovatsion texnologiyalarning yuqori samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot asosida shuni xulosa qilish mumkinki, innovatsion pedagogik texnologiyalar talabalarning tanqidiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Ular nafaqat bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi, balki mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borish hamda innovatsion metodlarni ta‘lim tizimiga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Tavsiya.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida oliy ta‘lim muassasalarida talabalarning tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchiidan, ta‘lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni tizimli ravishda joriy etish zarur. Xususan, muammoli o‘qitish, loyiha asosida o‘qitish va interaktiv metodlardan muntazam foydalanish talab etiladi. Bu yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashini faollashtiradi va ularni ijodiy yechimlar ishlab chiqishga yo‘naltiradi.

Ikkinchiidan, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda pedagoglar uchun innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodikalarga oid muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish lozim. Bu o‘qituvchilarning dars jarayonini samarali tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uchinchiidan, ta‘lim jarayonida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish darajasini oshirish zarur. Onlayn platformalar, interaktiv vositalar va raqamli resurslar talabalarning darsdagi faolligini oshirib, ularning tanqidiy tahlil va kreativ yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

To‘rtinchiidan, o‘quv dasturlarini takomillashtirish orqali tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan maxsus topshiriqlar va mashg‘ulotlarni kiritish tavsiya etiladi. Bu topshiriqlar talabalarning analitik fikrlashini chuqurlashtirish va muammolarni hal qilish qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Beshinchidan, ta'lim jarayonida baholash tizimini qayta ko'rib chiqish zarur. An'anaviy test tizimidan tashqari, talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini baholovchi mezonlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov, N.A., Xodjaev, B.X. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Tolipov, O'., Usmonboyeva, M. *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
3. Ishmuhamedov, R., Yuldashev, M. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
5. Qurbanov, Sh., Sodiqov, A. *Ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Tafakkur, 2021.
6. Выготский, Л.С. *Мышление и речь*. – Москва: Юрайт, 2019.
7. Давыдов, В.В. *Теория развивающего обучения*. – Москва: Интор, 2017.
8. Полат, Е.С. *Новые педагогические и информационные технологии в системе образования*. – Москва: Академия, 2018.

O‘QUVCHILARNI INGLIZ TILI FANI ASOSIDA ULARDAGI INTELLEKTUAL VA IJODIY QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK USLUBLARI

Haydarova Nozigul Bahrom qizi-
Zarafshon shahar 2-son texnikumi
ingliz tili fani o‘qituvchisi
nozigulhaydarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarining intellektual va ijodiy qobiliyatni takomillashtirishda ingliz tili faniga qiziqtirishning pedagogik uslublari to‘liq yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: tafakkur, intellektual, ijod, pedagogik, qobiliyat, tadqiqot, ta’lim, ilmiy, nazariy, izlanish, interaktiv.

Аннотация. В данной статье подробно описаны педагогические методы стимулирования интереса к изучению английского языка с целью развития интеллектуальных и творческих способностей школьников.

Ключевые слова: мышление, интеллектуальные способности, креативность, педагогические способности, исследования, образование, научные исследования, теоретические исследования, интерактивные исследования.

Abstract. This article fully describes the pedagogical methods of stimulating interest in English language learning in order to improve the intellectual and creative abilities of schoolchildren.

Keywords: thinking, intellectual, creativity, pedagogical, abilities, research, education, scientific, theoretical, research, interactive.

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy metodikalar shundan dalolat beradiki, til o‘rganish — faqat grammatik bilimlar emas, balki mustaqil fikrlash, analitik yondashuv va ijodiy tafakkurni rivojlantirish vositasiga aylangan. Sharq va G‘arbning buyuk allomalari ham bilim va fikr tarbiyasining bir-birini to‘ldiruvchi muhim jihatlari sifatida qaraganlar. Xususan, Abu Nasr Al-Farobiy, Al-Beruniy kabi Sharq mutafakkirlari ilm-fan va aql rivoji orqali shaxs kamolotini ta’minlashni o‘rgatganlar. G‘arb olimlari — Lev Vygotskiy, J. Piage, J. Deweylar esa bolalarda fikrning rivojlanishi va kognitiv taraqqiyot jarayonlarini nazariy va amaliy asosda ishlab chiqqanlar.

Intellektual tarbiya — shaxsning bilim olish, fikr yuritish, tahlil qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir. Fikr tarbiyasi esa insonda

mustaqil va tanqidiy tafakkurni shakllantirish, mavjud axborotlarni qayta ishlash va o‘z fikrini aniq ifoda etish mahoratini rivojlantirishga qaratilgan. Ingliz tilini o‘qitishda bu jarayonlar dialoglar va bahs-munozaralar va insho yozish, muammoli vaziyatlarni hal qilish mashqlari, tanqidiy fikrlash asosidagi topshiriqlar orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy ta’limning asosiy vazifalaridan biri — o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash va mustaqil izlanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu vazifa buyuk alloma Abu Rayhon , Al-Beruniy merosida chuqur aks etgan. Uning ilmiy-metodik yondashuvi kuzatuvchanlik, dalillarga asoslanish, tanqidiy tahlil va ilmiy izlanishga urg‘u berishi bilan ajralib turadi. Mazkur yondashuvni ingliz tili ta’limiga integratsiya qilish orqali nafaqat til ko‘nikmalarini, balki o‘quvchilarning tafakkurini ham rivojlantirish mumkin.

Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan:

- kompyuterlardan foydalanganda o‘quvchi ingliz tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko‘rishi ham eshitishi mumkin;
- chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniya dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin;
- ancha an’anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish;
- CD pleyerlardan foydalanish mumkin.

Bu texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini ta’minlaydi

Ingliz tili darslarida mustaqil izlanish loyihalari tashkil etish — o‘quvchilarga nafaqat tilni o‘rganish, balki o‘z fikrlarini izchil bayon qilish, axborotni tahlil qilish va muammolarga yechim topish ko‘nikmalarini shakllantirishda xizmat qiladi. Masalan, o‘quvchilarga “Atrof-muhit muhofazasi”, “Texnologik taraqqiyot”, yoki “O‘zbek allomalari” mavzusida kichik loyihalar tayyorlash topshiriladi. Ular ingliz tilida material yig‘adi, matnlar o‘qiydi, tarjima qiladi va so‘ngra o‘z izlanish natijalarini ingliz tilida taqdim etadi. Bu esa til ko‘nikmalarini va tanqidiy fikrlashni bir vaqtda rivojlantiradi. Shuningdek, tanqidiy maqolalarni tahlil qilish ham Al-Beruniy metodikasining amaliy ko‘rinishidir. Dars jarayonida o‘quvchilar ingliz tilida yozilgan maqolalarni o‘qib, ularning asosiy g‘oyasini tahlil qiladi, muallif fikriga baho beradi va o‘z nuqtayi nazarini bildiradi.

Ma’lumki, darsning turli xil o‘yinlar asosida o‘tilishi o‘quvchilarning imkoniyatlarini namoyish etish, diqqatni jamlash, bilim va ko‘nikmalarini oshirish va kuchli bo‘lishlarini ta’minlaydi. O‘yin texnologiyasidan foydalanishning asosini o‘quvchini

faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir.

Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

- “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;
- “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar;
- “Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;
- “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish ;
- “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;
- “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi.

G'arb psixologiyasi va pedagogikasida intellektual rivojlanish va fikrlash tarbiyasi muhim o'rin egallaydi. Bu sohadagi eng etuk nazariyotchilar sifatida J.Piage va L. Vygotskiy ko'plab ilmiy ishlar va ta'lim tizimlariga asos bo'lib xizmat qilgan. Ularning nazariyalari nafaqat bola psixologiyasini tushunishda, balki ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil qilishda ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirda jamiyatning jadal taraqqiy etishi o'quvchilarni ma'lumotlarni, ayniqsa, chet tilini tez o'rganishga va tushunishga majbur qiladi. Bugungi kunda kamida bitta chet tilini o'zlashtirish mutaxassisning kasbiy malakasining ajralmas talabiga aylanib bormoqda. Shu uchun chet tillarini o'rganish jarayonining samaradorligi, unumdorligi va sifatiga alohida e'tibor qaratish zarur. Til o'rganishning eng samarali usullari interaktiv metodlardir.

“Interaktiv” atamasi o‘rganuvchilarning birgalikda ishlashi va bir-biriga ta’sir qilishini anglatadi. Bu holat dialog yoki suhbatni nazarda tutadi. Shuning uchun bu metodlar o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi, shuningdek, faqat o‘rganuvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga yo‘naltirilgan. Bu jarayon o‘quvchilarning faol ishtirok etishini talab qiladi.

Interaktiv metodlar – bu jamoa bo‘lib ishlash va fikrlash deb yuritiladi, ya’ni pedagogik ta’sir etish usullari bo‘lib, ta’lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Interaktiv metodlarning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ular o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan hamkorlikda, birgalikda faoliyat olib borishi vositasida amalga oshiriladi.

Interaktiv ta’limning maqsadi – barcha o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb qilish hamda ularni fanga qiziqtirishga olib keladigan maxsus shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo‘lib, unda o‘quvchilar sodir bo‘layotgan hamma narsani tushunishlari va xabardor bo‘lishlari, bir-biriga ta’sir qilishlari va hissa qo‘shishlari, do‘stona va o‘zaro manfaatli munosabatlar o‘rnatishlari mumkin. Eng mashhur usullar – rolli o‘yinlar, aqliy hujum, *case-study* usuli, taqdimotlar va muhokamalar. Ular kommunikativ ko‘nikmalarni, mantiqiy fikrlashni tahlil, analiz, sintez, taqqoslash va umumlashtirish kabi turli xil intellektual faoliyat turlarini rivojlantiradilar. O‘quvchilarga ingliz tili fani asosida ulardagi intellektual va ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bu usullar, ayniqsa, ularning bilim, ko‘nikma va strategiyalarni o‘zlashtirishda faolroq jalb qilish uchun juda mos keladi.

Ma’lumki, rolli o‘yinlar ta’lim muassasadagi dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, fanlararo o‘zaro aloqadorlikni yaxshilaydi, nazariyani kasbiy sohaning haqiqiy ehtiyojlari bilan bog‘laydi va bo‘lajak mutaxassislar uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Asosiy element bu – oddiy ta’lim sharoitida egallash qiyin bo‘lgan ko‘nikmalarni hamda o‘quvchilardagi intellektual va ijodiy qobiliyatni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Rolli o‘yinlarda talabalarga turli xildagi obrazlar beriladi va sheriklar bilan gaplashish uchun ular bor bilimlaridan foydalanishlari kerak bo‘ladi. Umumiy ingliz tili darsi uchun bir nechta g‘oyalar mavjud. Bu vaziyatga mos ravishda moslashtirilishi mumkin. Telefon orqali suhbatni amalga oshirish:

Telefonda suhbatlashish yuzma-yuz suhbatlashishdan farq qiladi, chunki muloqot qilish uchun faqat tilga tayanadi. Lekin ichki his-tuyg‘ularini, rozi yoki norozilik kayfiyatini yuzi va ko‘zida aks ettira olmaydi. Uni faqat ovozda aks ettira olishi kerak. Masalan telefon orqali gaplashayotganda quyidagi mavzularda suhbatni tashkil qilish mumkin:

- shikoyat qilish uchun telefon qilish,

- minnatdorchilik bildirish uchun telefon qilish,
- do‘stingiz bilan gaplashish yoki ish joyi haqida so‘rash.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bekmuratova U. B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat. Toshkent — 2012 yil
2. Q. Xatamova, M.N.Mirzayeva. “Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar” (uslubiy qo‘llanma), Navoiy, 2006
3. Xatamova Q., Mirzayeva M.N. “Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar”. Navoiy, 2006.
4. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. “Games for Language Learning”. Cambridge University Press.
5. www.ziyonet.uz.

EASTERN INTELLECTUAL FOUNDATIONS OF INCLUSIVE SOCIAL SUPPORT: DISABILITY, JUSTICE AND PUBLIC RESPONSIBILITY

Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li
Independent Researcher, UrDU

Abstract. This thesis analyzes social support for persons with disabilities in the intellectual heritage of Eastern thinkers, jurists, and statesmen. The study shows that the treatment of vulnerable groups was understood as a criterion of justice, moral maturity, and responsible governance. Drawing on Islamic jurisprudence, moral philosophy, and public administration, the thesis highlights legal recognition, compassion, material assistance, labor inclusion, tax relief, and protection from oppression. The main argument is that persons with disabilities were not presented as people outside society, but as individuals whose dignity, rights, and needs had to remain at the center of social attention.

Keywords. disability, Eastern thinkers, social protection, justice, Hidayat, al-Farabi, Temur Tuzuklari, mercy, charity, public administration.

Introduction

The attitude toward persons with disabilities is one of the clearest indicators of a society’s understanding of justice. The state and society reveal their true moral level through the way they treat those who are most in need of protection. In Eastern thought, especially within Islamic civilization, vulnerable people were approached not only with pity, but also with a sense of legal, moral, and social responsibility. This responsibility included preserving human dignity, preventing exclusion, and providing support according to a person’s condition and needs.

The source text demonstrates that the issue of persons with disabilities was connected with a broader circle of vulnerable groups: the poor, the needy, debtors, travelers in distress, people with limited labor capacity, and other socially defenseless persons. Therefore, the study of this topic is not limited to medical or charitable assistance. It also reveals historical ideas about law, ethics, labor, governance, taxation, and the ruler’s duty before society.

The purpose of this thesis is to summarize the main ideas found in the Eastern intellectual heritage concerning social protection and inclusion. The analysis is organized around several interrelated theses: recognition of legal capacity, moral and religious obligation to help, inclusion in useful labor, state responsibility for the weak, and the continuity of these ideas in later Central Asian thought.

Main Part

First, Eastern juristic thought recognized the legal status of persons with disabilities. In Burhan al-Din al-Marghinani's *Hidaya*, an individual's physical or mental condition is taken into account when defining responsibility for certain crimes and violations. This indicates that legal thought did not rely on a mechanical view of punishment. Instead, it required the careful assessment of circumstances, ability, and condition. The same source explains that mute persons could express legal transactions, including marriage, divorce, buying, and selling, through writing or gestures. This is significant because it does not cancel their legal capacity. On the contrary, it recognizes communication in forms appropriate to their condition.

Second, social protection was interpreted as both a public duty and a moral obligation. Islamic teaching connected assistance to vulnerable groups with institutions such as *zakat*, *fitr*, *ushr*, and *sadaqah*. Through these practices, support for the poor, the needy, debtors, travelers in distress, and other people requiring help became part of social life. Hadith literature also strengthens this idea. The act of guiding a blind person on the road is described as charity. Such an example shows that help is not limited to money; it also includes daily care, attention, and solidarity.

Third, Eastern philosophy connected justice with inclusion and the proper distribution of social goods. Abu Nasr al-Farabi's doctrine of the virtuous society interprets justice as giving each person his or her due share and preserving that share. In this understanding, wealth, health, honor, rank, and other benefits should be balanced according to the principles of justice. Persons with disabilities and the sick should not be isolated from society. They should be supported and, where possible, included in useful labor. For its time, this was a progressive idea, because it linked social protection not only with material assistance, but also with human dignity and social participation. Fourth, al-Farabi's idea that each person should work according to his or her abilities gives a special meaning to inclusion. Applied to persons with disabilities, this principle means that the aim of society should not be exclusion or passivity. Instead, society should help each person find a role that corresponds to his or her capacity. In this way, the issue of disability becomes part of the general question of social order, mutual benefit, and the moral organization of community life.

Fifth, the ethical writings of Nasir al-Din al-Tusi continue the same direction by emphasizing humanity, mercy, forgiveness, and compassion toward the weak. In this view, the maturity of a society is seen in its treatment of those who cannot fully defend themselves. The value of a human being is not reduced to physical strength or economic productivity. The weak and needy remain part of the moral community, and caring for them becomes a duty of conscience.

Sixth, traditions of public administration treated protection of the weak as a measure of just rule. In Nizam al-Mulk's *Siyasatnama*, the ruler's justice is shown through supervision of officials, prevention of oppression, and protection of the subjects. A wise ruler must learn the needs of the population and must pay particular attention to defenseless groups. This approach shows that social protection was not only a private act of kindness, but also a task of governance.

Seventh, the *Temur Tuzuklari* reflects a more organized understanding of social support. It emphasizes protection of the population's property, security, and living conditions, and it warns against oppressive tax collection that could drive people into poverty. Amir Temur's instructions to support the blind, the poor, and those whose opportunities for labor were limited show that vulnerable groups were included in the responsibilities of state policy. The establishment of mosques, madrasas, guest houses, hospitals, and soup kitchens for the poor also points to systematic forms of care.

Eighth, later Central Asian authors preserved this moral and political idea. In *Dastur ul-Muluk*, Samandar Termizi notes that the social condition of the population should be considered when taxes are determined. The works of Ahmad Donish, Mahmud ibn Vali, Mir Muhammad Amin Bukhari, Muhammad Yusuf Munshi, Abulgazi Bahadurkhan, and other authors portray the just ruler as a person who cares for the poor, the distressed, and the needy. Thus, concern for vulnerable groups became part of historical memory and political ethics.

The theoretical significance of these views lies in their integrated character. The Eastern tradition did not separate law from morality or governance from compassion. Legal capacity protected a person's status before the law; charity and mercy protected daily life; labor inclusion protected dignity; and just administration protected people from oppression. This combination forms a historically rich understanding of social support.

The practical meaning of the analyzed heritage is also clear. It teaches that assistance to persons with disabilities should not reduce them to passive recipients of help. Support should include respect, participation, appropriate forms of communication, and protection from economic hardship. In this sense, Eastern thinkers presented social care as a way of strengthening society itself.

Taken together, these ideas show that Eastern thought formed a broad model of social protection. It included legal recognition, charitable assistance, labor inclusion, protection from oppression, fair taxation, and the ruler's responsibility. Persons with disabilities were not described as people who should remain outside society. They were viewed as human beings whose dignity and needs required attention from family, community, and state.

Conclusion

The analysis shows that support for persons with disabilities was not an accidental or secondary theme in Eastern intellectual heritage. It was closely connected with justice, mercy, legal capacity, material assistance, and state responsibility. Islamic jurisprudence recognized the legal status of persons with disabilities and accepted forms of communication suitable to their condition. Moral and religious teaching strengthened assistance through charity, compassion, and everyday support.

Eastern philosophy and political thought emphasized that persons with disabilities should not be isolated from social life. Where possible, they should be involved in useful labor according to their abilities. Traditions of governance, especially those associated with Nizam al-Mulk and Amir Temur, show that care for the weak was understood as one of the main qualities of just rule. Therefore, the heritage of Eastern thinkers remains an important historical and moral source for strengthening inclusive social protection today. Its central message is that human dignity must stand at the center of law, morality, and public administration.

References

1. Mukhtasar. A Brief Commentary on the Sharia Laws. Tashkent: Cho‘lpon Publishing House, 1994, pp. 305–306.
2. Mukhtasar. A Brief Commentary on the Sharia Laws. Tashkent: Cho‘lpon Publishing House, 1994, p. 332.
3. Hadith. Book 1, p. 411, Hadith 158.
4. Khayrullaev, M.M. Stars of Spirituality. Tashkent: A. Qodiriy National Heritage Publishing House, 2001, p. 49.
5. Abu Nasr Farabi. Treatises. Tashkent, p. 115.
6. Al-Farabi. Selected Treatises. Translated from Arabic. Almaty: Gylym, 1994, p. 294.
7. Turg‘unov, M. Al-Farabi’s Views on the Just State. Tashkent: Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2002, p. 46.
8. Khayrullaev, M.M. Stars of Spirituality. Tashkent: A. Qodiriy National Heritage Publishing House, 2001, p. 115.
9. Nizam al-Mulk. Siyasatnama (Siyar al-Muluk). Second revised and expanded edition. Tashkent: Yangi Asr Avlodi, 2008, p. 34.
10. Khayrullaev, M.M. Stars of Spirituality. Tashkent: A. Qodiriy National Heritage Publishing House, 2001, p. 12.
11. Temur Tuzuklari. Tashkent: G‘afur G‘ulom Publishing House, 1991, p. 67.
12. Temur Tuzuklari. Tashkent: G‘afur G‘ulom Publishing House, 1991, p. 67.
13. Khayrullaev, M.M. Stars of Spirituality. Tashkent: A. Qodiriy National Heritage Publishing House, 2001, p. 132.

14. Khayrullaev, M.M. Stars of Spirituality. Tashkent: A. Qodiriy National Heritage Publishing House, 2001, p. 131.

KASBIY DIALOGLAR (MIJOZ BILAN MULOQOT) ORQALI SPEAKINGNI RIVOJLANTIRISH PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI UCHUN AMALIY METODIK MODEL

Eshqorayeva Ibodat

Termiz shahar 2-son texnikumi Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya.

Professional ta'lim muassasalarida ingliz tili darsining eng muhim natijasi – talabanning real ish vaziyatlarida tushunarli va odobli muloqot qila olishi, mijoz ehtiyojini aniqlashi, xizmatni taklif etishi, muammoli holatlarda yechim topib, qisqa izoh bera olishidir. Bunday kompetensiya ko'pincha grammatik qoidalarni bilishdan ko'ra, funksional nutq formulalari, tipik kasbiy dialoglar va avtomatlashtirilgan gapirish odatlariga tayangan holda shakllanadi. Ushbu maqolada texnikum va kasb-hunar yo'nalishlarida speakingni rivojlantirish uchun kasbiy dialoglar (mijoz bilan muloqot ssenariylari) asosida darsni loyihalash, mashq qildirish va baholashning oddiy, ammo tizimli usullari taklif etiladi. Metodologiya qismida 6 haftalik mini-modul dizayni bayon qilinadi: dialog-bank yaratish, til birliklarini chunklar ko'rinishida berish, uch bosqichli mashq (model–mashq–rol ijrosi), formatif baholash (check-list, quick rating, exit-ticket) hamda yakuniy performance baholash uchun rubrika ishlab chiqish. Natijalar qismida pilot monitoring (o'qituvchi rubrikasi va talabalar o'z-o'zini baholashi) asosida dialogga kirishish tezligi, muloqot odobi, leksik moslik va ravonlik ko'rsatkichlarida ijobiy siljishlar ko'rsatiladi. Muhokamada usulning afzalliklari, resurs cheklovlarida qo'llash yo'llari va xatolar bilan ishlash strategiyalari tahlil qilinadi. Tavsiya etilayotgan yondashuv oddiy General English darslarini ham kasbiy muloqotga yaqinlashtirib, bitiruvchining ishga tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. kasbiy dialog, mijoz bilan muloqot, speaking, professional ta'lim, role-play, nutq formulalari, rubrika, formatif baholash.

Kirish

Professional ta'lim muassasalarida (texnikum, kasb-hunar maktablari va kollejlarda) ingliz tilini o'qitish ko'pincha amaliy foyda mezoni bilan baholanadi: talaba kelajakdagi ish joyida oddiy vazifalarni bajarishda ingliz tilidan foydalanishi kerak. Bu talab ayniqsa xizmat ko'rsatish sohalarida yaqqol ko'rinadi: turizm va mehmonxona xizmati, savdo va servis, logistika, IT-texnik xizmat, tibbiy xizmat, avtomexanika,

elektr jihozlarini ta'mirlash kabi yo'nalishlarda mijoz bilan muloqot doimiy jarayon hisoblanadi.

Ko'p hollarda mijoz bilan muloqot nafaqat nima deyish, balki qanday deyishni ham belgilaydi: odobli murojaat, aniqlashtiruvchi savollar, muammoni tushuntirish, uzr so'rash, taklif bildirish, vaqt va narxni aytish, xavfsizlikni eslatish kabi komponentlar so'zlashuvning funksional skeletini tashkil etadi. Dars jarayonida aynan shu funksional skelet shakllanmasa, talaba grammatikani bilsa ham muloqotni boshlash va davom ettirishda qiynaladi.

Amaliyotda speaking ko'nikmasini o'stirish bir necha sababga ko'ra qiyinlashadi. Guruhlar aralash darajali bo'ladi (A2–B1), ayrim talabalar gapirishdan uyaladi yoki xato qilishdan qo'rqadi. O'qituvchida tayyor kasbiy materiallar (dialoglar, ssenariylar, rubrikalar) cheklangan bo'lishi mumkin. Baholash esa ko'pincha testga tayanib, speakingning real sifat ko'rsatkichlarini (tushunarlik, muloqot odobi, vazifa bajarilishi) to'liq qamrab olmaydi. Natijada dars mavzu o'tishga aylanib, bitiruvchining ishga tayyorgarligi bilan uzilish paydo bo'ladi.

Kasbiy dialoglar asosidagi yondashuv ushbu muammoni soddalashtiradi. Professional muloqotning katta qismi takrorlanuvchi ssenariylardan iborat: salomlashish va xizmat taklif qilish, ehtiyojni aniqlash, tushuntirish va ko'rsatma berish, muammoni aniqlash (troubleshooting), vaqt va narxni kelishish, yakunlash va xayrlashish. Aynan shu ssenariylar atrofida dialog-bank tuzilib, dars mazmuni nutq formulalari + vazifa printsipi bilan bog'lanadi. Shunda grammatik va leksik material ham alohida maqsad emas, balki dialog vazifasini bajarishga xizmat qiladigan vositaga aylanadi.

Maqolaning maqsadi – professional ta'lim sharoitida speakingni kasbiy dialoglar orqali rivojlantirishning tizimli, amaliy va resurs talab qilmaydigan metodik modelini bayon qilish, shuningdek o'qituvchi uchun rejalashtirish, mashq qildirish va baholashning aniq mexanizmlarini taklif etishdir. Tadqiqot savoli quyidagicha ifodalanadi: kasbiy dialog-bank, rol ijrosi va rubrikali baholashga tayangan dars dizayni talabalarning tushunarli, odobli va vazifaga yo'naltirilgan speaking ko'rsatkichlarini qisqa muddatda yaxshilay oladimi?

Metodologiya

Metodik yondashuv dialogga asoslangan speaking modeliga tayandi va mini-tadqiqot sifatida pilot monitoring bilan kuzatildi. Ish jarayoni professional ta'lim muassasasidagi 1-kurs talabalari bilan 6 hafta davomida haftasiga 2 soatlik darslar doirasida tashkil etildi. Guruhlar umumiy darajasi A2–B1 bo'lgan talabalardan iborat bo'lib, asosiy maqsad kundalik kasbiy muloqot ssenariylarini o'rgatish va ularni avtomatlashtirishdan iborat edi.

Ishtirokchilar va kontekst. Tajribada shartli ravishda ikki guruh koʻzda tutildi: A guruhi (dialog-bank + rol ijrosi + rubrika) va B guruhi (anʼanaviy mashqlar: matn oʻqish, lugʻat, grammatika, qisqa dialoglarni takrorlash). Har bir guruhda 20–25 nafar talaba boʻldi. Bu dizayn qatʼiy laboratoriya tajribasini emas, balki amaliy taʼlim sharoitidagi metodik solishtirishni anglatadi; natijalar tendensiya sifatida talqin qilinadi.

Materiallar. Asosiy didaktik birlik sifatida 24 ta kasbiy dialog namunasi tayyorlandi (dialog-bank). Ular 6 ta yadro ssenariyga taqsimlandi: (1) Greeting & Offering help, (2) Needs analysis (clarifying questions), (3) Explaining options (service/product), (4) Handling problems/complaints, (5) Agreeing on time and price, (6) Closing & follow-up. Har bir dialog 8–12 replika (navbat)dan iborat boʻlib, ichida 10–15 ta tayyor ibora (chunks) ajratildi. Misol: "How can I help you today?", "Could you tell me ...?", "Let me check ...", "I'm sorry for the inconvenience", "Here are two options ...", "It will take about ...", "Would you like to ...?".

Jarayon. Har bir ssenariy 3 bosqichli sikl orqali oʻqitildi.

1) Model bosqichi: oʻqituvchi dialogni rolli oʻqish orqali namoyish qiladi, keyin maʼno va vazifa tushuntiriladi (kim, qayerda, nima muammo, nima yechim).

2) Mashq bosqichi: chunklarni qisqa drill, gapni davom ettirish, substitution mashqlari orqali mustahkamlash, soʻng juftlikda controlled practice (boʻsh joy toʻldirish, kartochka boʻyicha savol-javob).

3) Rol ijrosi: semi-open va open role-play (talabalar kartochkadan vaziyat oladi, oʻz soʻzlari bilan dialog qiladi). Bu bosqichda oʻqituvchi minimal aralashadi, faqat kommunikativ muvaffaqiyatni qoʻllab-quvvatlaydi.

Baholash vositalari. Speaking sifatini tez va shaffof oʻlchash uchun 4 mezonli rubrika ishlab chiqildi (1–5 ball): (a) Vazifa bajarilishi (mijoz ehtiyoji aniqlanib, yechim taklif qilindimi?), (b) Tushunarlilik va ravonlik (intelligibility/fluency), (c) Kasbiy leksika va iboralar mosligi (ESP chunks), (d) Muloqot odobi (politeness, tone). Har haftada formatif baholash sifatida check-list va 1 daqiqalik exit-ticket qoʻllanildi (masalan, bugungi ssenariy uchun 3 ta odobli ibora yozish yoki 2 ta aniqlashtiruvchi savol tuzish). Maʼlumotlarni tahlil qilish. Pilot monitoringda har guruhda 2 marta (boshlanish va 6-hafta oxiri) 3 daqiqalik role-play jonli ijro rubrika boʻyicha baholandi. Shuningdek, talabalar oʻz-oʻzini baholash anketasida (1–5) gapirishga ishonch, mijozni tushunish, gapni boshlash osonligi kabi indikatorlarni belgiladi.

Natijalar

Pilot monitoring natijalari kasbiy dialoglar asosidagi speaking sikli qisqa muddatda ijobiy oʻzgarishlar berishini koʻrsatdi. Birinchi navbatda, A guruhida dialogga kirishish (greeting + offering help) tezlashdi: dastlab koʻpchilik talaba 10–15 soniya sukutdan soʻng oddiy "Hello" bilan cheklanib qolgan boʻlsa, 6-hafta oxirida talabalar odobli va

vazifaga yo'naltirilgan formulalarni tezroq ishlata boshladi ("Hello, how can I help you?", "Good afternoon, what seems to be the problem?").

Ikkinchi o'zgarish aniqlashtiruvchi savollar sifatida namoyon bo'ldi. Dastlab savollar ko'pincha bir so'zli ("What?" "Where?") shaklda bo'lgan, keyinchalik esa "Could you tell me when it started?", "Do you have the order number?" kabi funksional savollar ko'paydi.

Rubrika bo'yicha o'rtacha ballar ham o'sish tendensiyasini berdi. Quyidagi jadvalda 1–5 ballik rubrika asosida boshlang'ich va yakuniy ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymati keltiriladi (pilot ma'lumotlari, nisbiy solishtirish).

Guruh	Vazifa bajarilishi	Ravonlik/tushunarlik	ESP iboralar	Muloqot odobi
A (dialog-bank)	2.8 → 3.9	2.6 → 3.6	2.4 → 3.7	3.0 → 4.2
B (an'anaviy)	2.7 → 3.2	2.6 → 3.0	2.3 → 2.8	3.0 → 3.4

Jadvaldan ko'rinadiki, har ikki guruhda ham ma'lum o'sish mavjud, ammo A guruhida ayniqsa ESP iboralaridan foydalanish va muloqot odobi bo'yicha farq aniqroq. Bu shuni anglatadiki, speakingni dialog vazifasi atrofida mashq qildirish va iboralarni chunk sifatida avtomatlashtirish real kasbiy muloqotga yaqinroq natija beradi.

Talabalar o'z-o'zini baholashida ham ijobiy siljish qayd etildi. A guruhida gapni boshlash osonligi indikatori o'rtacha 2.4 dan 3.9 ga, mijoz bilan odobli gaplasha olish 2.8 dan 4.1 ga ko'tarildi. Ko'pchilik talaba role-playdan keyin aynan tayyor iboralar ro'yxati ularga nima deyishni bilish hissini berganini, shuning hisobiga hayajon kamayganini ta'kidladi.

Natijaviy baholash sifatida 6-hafta oxirida workplace speaking check o'tkazildi: talaba (1) salomlashib xizmat taklif qildi (20–30 soniya), (2) 2 ta aniqlashtiruvchi savol berdi (30–40 soniya), (3) 1 ta yechim varianti va taxminiy vaqt yoki narxni aytdi (40–60 soniya), (4) yakunda xayrlashib follow-up taklif qildi (20 soniya). Rubrika bo'yicha A guruhida ko'pchilik talaba 16–18 ball (maksimal 20) oralig'ida natija ko'rsatdi, B guruhida esa 12–15 ball oralig'i ko'proq uchradi (pilot kuzatuv).

Muhokama

Kasbiy dialoglar orqali speakingni rivojlantirishning birinchi afzalligi – didaktik aniqlik. Dars mavzu atrofida emas, kasbiy vazifa atrofida quriladi. Talaba uchun kommunikativ maqsad ravshan bo'ladi: mijozni tushunish, yechim taklif qilish, kelishish. Bu motivatsiyani oshiradi, chunki topshiriq darsdan tashqaridagi hayot bilan bog'lanadi.

Ikkinchi afzallik – til materialini optimallashtirish. Professional muloqotda tez-tez uchraydigan iboralarni chunk sifatida berish (masalan, "Could you please ...?", "Let me check ...", "Would you like to ...?") grammatikani alohida o‘qitishni qisqartiradi: talaba formulani tayyor holda ishlatib, keyin asta-sekin ichki tuzilishini anglaydi. Bunday yondashuv resurs cheklangan sharoitda (dars soati kam, darslik umumiy) ayniqsa qulay.

Uchinchi afzallik – baholashning shaffoflashuvi. Speakingni yoqdi-yoqmadi tarzida emas, rubrika bo‘yicha baholash o‘qituvchi va talaba uchun kutilmalarni bir xil qiladi. Talaba nimaga e‘tibor berishini biladi: vazifa bajarilishi, tushunarlilik, kasbiy ibora, odob. O‘qituvchi esa baholashni tezlashtiradi: role-play jarayonida 4 mezon bo‘yicha 1–5 ball qo‘yish yetarli.

Modelni joriy etishda ehtiyot nuqtalar ham bor. Dialoglar sun‘iy bo‘lib qolmasligi uchun ssenariylar doimiy yangilanib turishi kerak: bir xil ibora bilan cheklanib qolmasdan, alternativ formulalar banki beriladi. Xatolar bilan ishlashda esa role-play paytida har xatoni to‘xtatib tuzatish tavsiya etilmaydi; delayed correction ma‘qul: o‘qituvchi muhim xatolarni qayd etadi, faoliyatdan so‘ng qisqa tahlil qiladi va to‘g‘ri variantlarni beradi.

Aralash darajali guruhda dialog kartochkalarini darajalash (tiered cards) ishlaydi: kuchli talabaga shikoyat + 2 yechim variant berilsa, boshlang‘ich darajadagiga so‘rov + 1 yechim beriladi. Support language varaqasi hamma uchun ochiq bo‘lishi mumkin; bu real ish joyidagi cheat-sheet analogi sifatida qabul qilinadi.

Nihoyat, dialoglar faqat turizm yoki servis bilan cheklanmaydi. IT yo‘nalishida technical support call, tibbiyotda patient intake, avtomexanikada car problem description, elektr yo‘nalishida safety instruction kabi ssenariylar dialog-bankning tabiiy kengaytmasidir. Muhimi – har bir yo‘nalishda 6–8 ta yadro vaziyatni tanlab, ularni semestr davomida chuqurlashtirishdir.

Xulosa

Kasbiy dialoglar (mijoz bilan muloqot ssenariylari) professional ta‘lim muassasalarida speakingni rivojlantirish uchun qulay va natijaga yo‘naltirilgan didaktik birliklardan biridir. Ular darsni real ish vazifalari bilan bog‘laydi, til materialini chunklar orqali soddalashtiradi, role-play yordamida avtomatlashtirishni ta‘minlaydi va rubrikali baholash orqali shaffof natija beradi. 6 haftalik pilot monitoring dialog-bank + uch bosqichli speaking sikli (model–mashq–rol ijrosi) + formatif baholash vositalari qo‘llanganda vazifa bajarilishi, kasbiy ibora ishlatish va muloqot odobi ko‘rsatkichlari tezroq o‘shini ko‘rsatdi.

Amaliy tavsiyalar: (1) har yo‘nalish uchun 20–30 ta dialogdan iborat kichik dialog-bank tuzing; (2) har dialogdan 10–15 ta tayyor iborani ajrating va support language

sifatida darsda foydalanishga ruxsat bering; (3) role-playni haftasiga kamida 15–20 daqiqa doimiy qiling; (4) baholashda 4 mezonli rubrikani qo‘llang va tezkor feedback bering; (5) xatolarni ko‘proq faoliyatdan keyin tuzating, muloqot oqimini buzmaying. Shu yondashuv oddiy General English darslarini ham kasbiy muloqotga yaqinlashtirib, texnikum bitiruvchisining ish joyida ingliz tilidan foydalanish kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Brown, H. D. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. 4th ed. Pearson, 2015.
2. Dudley-Evans, T., St John, M. J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-disciplinary Approach. Cambridge University Press, 1998.
3. Ellis, R. Task-based Language Teaching and Learning. Oxford University Press, 2003.
4. Hutchinson, T., Waters, A. English for Specific Purposes: A Learning-centred Approach. Cambridge University Press, 1987.
5. Long, M. H. Second Language Acquisition and Task-Based Language Teaching. Wiley-Blackwell, 2015.
6. Nation, I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. 2nd ed. Cambridge University Press, 2013.
7. Skehan, P. A Cognitive Approach to Language Learning. Oxford University Press, 1998.
8. Swain, M. The Output Hypothesis: Theory and Research. In: Handbook of Research in Second Language Teaching and Learning. Routledge, 2005.
9. Thornbury, S. How to Teach Speaking. Pearson, 2005.
10. Willis, J., Willis, D. Doing Task-Based Teaching. Oxford University Press, 2007.

EMOTIVE LEXICAL UNITS WITH POSITIVE SENSE AND NEGATIVE SENSE IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Bobomuradova Maxliyo Shodimurot qizi

Master's student at Termez University of Economics and Service

Eshmuminov Asqar Allamuratovich

Scientific supervisor, DSc, dots

Abstract: *This article provides a comparative analysis of emotive lexical units with positive and negative connotations in the English and Uzbek languages. The study focuses on emotional semantics, evaluative components, and connotative meanings that shape the expressive potential of lexical items. Words, phrases, and idiomatic expressions conveying positive and negative emotions are examined in terms of their linguistic features and functional roles in discourse. The research also explores similarities and differences in the formation and use of emotive vocabulary across different linguocultural contexts. The findings highlight the close relationship between language, emotion, and culture, emphasizing the role of emotive lexis in enhancing communicative effectiveness.*

Keywords: *Emotive lexicon, positive emotion, negative emotion, connotation, semantics, comparative analysis, linguoculturology, evaluative component, communication*

